

Buranova Ra'no Qudratovna
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi
tarix, davlat va huquq asoslari fani metodisti

ZAMONAVIY TARIX TA'LIMIDA O'QUVCHIGA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV: MUAMMOLAR, IMKONIYATLAR VA AMALIYOT

Annotatsiya. Maqolada o'quvchiga yo'naltirilgan ta'lim (SCL) yondashuvining tarix fanida qo'llanilishi, o'qituvchilarning bu yondashuvga bo'lgan munosabati va amaliyotda duch kelinayotgan muammolar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: O'quvchiga yo'naltirilgan ta'lim, konseptual xaritalar, loyiha asosida o'rganish, gamifikatsiya, formatif baholash, pedagogik innovatsiyalar, metodik tayyorgarlik, tarixiy tafakkur, tanqidiy fikrlash.

ОРИЕНТИРОВАННЫЙ НА УЧАЩЕГОСЯ ПОДХОД В СОВРЕМЕННОМ ИСТОРИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ: ПРОБЛЕМЫ, ВОЗМОЖНОСТИ И ПРАКТИКА

Аннотация. В статье рассматривается применение подхода обучения, ориентированного на учащегося (SCL), в преподавании истории, отношение учителей к данному подходу и анализируются проблемы, возникающие в процессе его внедрения в практику.

Ключевые слова: Обучение, ориентированное на учащегося, концептуальные карты, проектное обучение, геймификация, формативное оценивание, педагогические инновации, методическая подготовка, историческое мышление, критическое мышление.

A STUDENT-ORIENTED APPROACH IN MODERN HISTORY EDUCATION: CHALLENGES, OPPORTUNITIES, AND PRACTICE

Abstract. The article analyzes the application of the student-centered learning (SCL) approach in history education, teachers' attitudes towards this approach, and the challenges encountered in its practical implementation.

Keywords: Student-centered learning; concept maps; project-based learning; gamification; formative assessment; pedagogical innovations; methodological training; historical thinking; critical thinking.

Bugungi kunda tarix fanining o'qitilish tamoyillari keskin o'zgarish arafasida turibdi. An'anaviy "ma'lumotni uzatish" modelidan farqli o'laroq, zamonaviy yondashuv tarixiy tafakkurni shakllantirish, sabab-oqibat aloqalarini tushunish, manbalarni tanqidiy tahlil qilish va kontekstual anglash kabi yuqori darajadagi intellektual ko'nikmalarni talab qilmoqda [1; 4].

XXI asr ta'lim konsepsiyasida kompetensiyaviy yondashuv asosiy o'ringa ega bo'lib, tarixiy voqealarni faqat bilish emas, balki ularni tahlil qilish, baholash va ular bo'yicha asosli qarorlar chiqarish zarurati ta'kidlanmoqda. Shu munosabat bilan o'quvchiga yo'naltirilgan ta'lim (Student-Centered Learning - SCL) tarix fanida strategik yondashuv sifatida ilgari surilmoqda. Bu yondashuv orqali o'quvchilarda shaxsiy faollik, tanqidiy fikrlash, mustaqil fikr bildirish, tarixiy kontekstni baholash, hamkorlikda ishlash va o'z nuqtai nazarini dalillar bilan asoslab berish kabi zarur kompetensiyalar shakllanadi [2; 4; 5].

YUNESKOning 2019-yildagi "Global Citizenship Education" hisobotida qayd etilishicha, tarix darslarida inson huquqlari, madaniyatlararo muloqot, tinchlikparvarlik va tanqidiy tarixiy qarashlar TYT orqali samarali shakllanishi mumkin. Bu esa insonparvar fuqarolik tarbiyasini yo'lga qo'yishda muhim omil sanaladi [6]. Biroq amaliyotda SCL yondashuvining joriy qilinishi qator muammolar bilan to'qnash kelmoqda. O'tkazilgan izlanishlar shuni ko'rsatadiki, ko'plab

o'qituvchilar SCL metodikasini nazariy jihatdan bilishsa-da, uni amaliyotga tatbiq etishda qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Bu holatning sabablari quyidagicha aniqlangan:

An'anaviy monolog va leksiya usullarining dars amaliyotida mustahkam o'rnashib qolganligi [1; 3]; Innovatsion metodikalar bo'yicha doimiy malaka oshirish kurslari va seminarlarning yetarli emasligi [5; 7]; Dars yuklamasining ko'pligi va texnik vositalar bilan ta'minlanish darajasining pastligi [6]; O'qituvchi rolining o'zgarayotganini to'liq anglab yetmaslik [2; 5].

Ushbu muammolarni chuqur tahlil qilish va tarix fanida SCL yondashuvini samarali joriy etish maqsadida biz quyidagi tadqiqot savollarini o'rganishga kirishdik: Tarix o'qituvchilari SCL yondashuvi va metodlarini qay darajada bilishadi va amalda qo'llashadi?, Qaysi uslublar samarali, qaysilari murakkab deb baholanadi?, SCLni joriy qilishda qanday to'siqlar mavjud? SCL yondashuvi tarix darslariga qanday ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda?. Bu savollarga javob izlash orqali biz tarix darslarini interaktiv, zamonaviy va o'quvchi markazli shaklga keltirish uchun zarur ilmiy-amaliy asoslarni yaratishni maqsad qildik. Tadqiqotimiz natijalari SCL yondashuvini amaliyotga tatbiq etishda o'qituvchilarning tayyorgarlik darajasini aniqlash va ushbu yondashuvning ta'lim sifati va samaradorligiga bo'lgan ta'sirini baholash imkonini beradi.

Ushbu ilmiy-amaliy tadqiqot holat tahlili (case study) metodiga asoslangan bo'lib, u muayyan kontekstda - ya'ni o'rta maktablarda tarix faniga o'quvchiga yo'naltirilgan ta'lim (SCL)ni joriy etishdagi real sharoit va muammolarni chuqur o'rganishni maqsad qilgan. Holat tahlili usuli aynan pedagogik tajribaning ichki dinamikasini anglash, o'qituvchining amaliy yondashuvi va qarashlarini aniqlashda eng samarali metod hisoblanadi. Tadqiqot ob'ekti sifatida Samarqand viloyati umumiy o'rta ta'lim maktabining tarix fani o'qituvchilari tanlab olindi. Bu maktablarda o'qituvchilarning metodik holatini solishtirish, tajriba almashuvi darajasi, texnik vositalar bilan ta'minlanganlik darajasi farq qilishi sababli, ushbu tahlilda turli maktab muhitlarini qamrab olish maqsad qilingan. Tadqiqotda jami 28 nafar tarix fani o'qituvchisi ishtirok etdi. Ishtirokchilar o'rta (3–10 yil), yuqori (11–20 yil) va juda yuqori (20+ yil) pedagogik tajribaga ega bo'lgan o'qituvchilardan iborat bo'ldi. Bu esa ma'lumotlar tahlilida avlodlararo metodik yondashuvlar farqini ham aniqlash imkonini berdi. So'rovnoma - ushbu tadqiqotning asosiy vositasi bo'lib xizmat qildi. U muallif tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, 16 ta savoldan iborat. Savollar ikki turga bo'lindi: Yopiq va ochiq savollar.


So'rovnoma quyidagi 4 asosiy yo'nalishni qamrab olindi:

1. (SCL) konsepsiyasi haqidagi bilim va xabardorlik darajasi;
2. Amaliyotda ishlatilayotgan innovatsion metodlar (va ularni qo'llash chastotasi);
3. (SCL)ni joriy etishda duch kelinayotgan muammolar;
4. O'qituvchilarning taklif va tavsiyalari.

So'rovnoma anonim tarzda o'tkazildi, bu esa ishtirokchilarning ochiq va samimiy fikr bildirishi uchun qulay sharoit yaratdi. So'rovnoma 2025 o'quv yilining yanvar–aprel oylarida amalga oshirildi. Har bir savol bo'yicha asosiy tendensiyalar, muammolar va ilg'or yondashuvlar ajratib olindi. Tadqiqot davomida tarix o'qituvchilari orasida o'quvchiga yo'naltirilgan ta'lim (SCL) bo'yicha bilim, metodik tayyorgarlik va amaliyotdagi qo'llash darajasi chuqur o'rganildi.

1. (SCL) haqida bilim va xabardorlik. So'rovnomada qatnashgan o'qituvchilarning 76 % (SCL) tushunchasi bilan tanish ekanini bildirgan. Bu - ijobiy ko'rsatkich bo'lsa-da, shuni ta'kidlash kerakki, faqat 21 % bu yondashuvni doimiy ravishda amaliyotda qo'llaydi. Qolgan 65 % o'qituvchi esa bu metodlarni faqat vaqti-vaqti bilan ishlatishini bildirgan. Bu holat (SCL)ga bo'lgan umumiy ijobiy munosabat mavjudligini ko'rsatadi, biroq u doimiy amaliyotga aylanishi uchun muayyan to'siqlar mavjudligini ham anglatadi.

2. Eng ko'p qo'llaniladigan metodlar. O'qituvchilarning javoblariga ko'ra, tarix darslarida eng ko'p ishlatiladigan (SCL) metodlari quyidagilardir (1-rasmga qarang):



I-rasm. So'rovnoma natijasida tarix darslarida eng ko'p ishlatiladigan (SCL) metodlar.

3. Chuqurroq o'rganilishi kerak bo'lgan metodlar. O'qituvchilar orasida konseptual xaritalar, loyiha asosida o'rganish, gamifikatsiya va formatif baholash kabi chuqurroq o'zlashtirilishi zarur metodlar kamroq qo'llanilmoqda, bu esa tarix fanini samarali o'qitishda muhimligini ko'rsatadi.

4. (SCL) ni joriy qilishdagi muammolar. So'rovnomada o'qituvchilar (SCL)ni amaliyotga joriy etishda duch kelayotgan muammolarni ochiq ifodalaganlar. Asosiy to'siqlar quyidagicha: Darsga tayyorgarlik uchun ko'proq vaqt kerak bo'ladi 57%. Bu metodlar soddalashtirilgan reja asosida emas, balki didaktik asoslangan, ko'p bosqichli yondashuv talab qiladi. O'quvchilarda mustaqil ishlash odatining sustligi 52%. Bu esa (SCL) ning asosiy tamoyiliga zid holatdir. Baholash mezonlarini aniq belgilashdagi murakkabliklar 28%. Chunki (SCL)da natijani baholash o'quvchining izlanishi, tahliliy fikri va ijodiy yondashuviga bog'liq. Texnologik vositalarning yetishmovchiligi 19%. Bu ayniqsa interaktiv metodlar va raqamli baholash vositalari uchun jiddiy muammo.

Tadqiqot natijalari o'quvchiga yo'naltirilgan ta'lim (SCL) yondashuvi tarix fanida nafaqat bilimlarni chuqur o'zlashtirish, balki tanqidiy va mantiqiy fikrlash, dalillarga asoslangan xulosalar chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, tarixiy tafakkurni rivojlantirish kabi muhim kompetensiyalarni shakllantirishda samarali vosita ekanini tasdiqlaydi. SCL yondashuvi o'quvchini passiv bilim oluvchidan faol tadqiqotchi va ishtirokchiga aylantirib, tarixni yod olishga emas, balki sabab-oqibat aloqalarini tushunish va ularni zamonaviy kontekstda talqin qilishga yo'naltiradi. Bu yondashuv o'qituvchi rolining tubdan o'zgarishini taqozo etadi: u endilikda shunchaki "bilim beruvchi" emas, balki "yo'naltiruvchi, fikrlashga ilhomlantiruvchi, mustaqil izlanishga rag'batlantiruvchi" sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqotda aniqlanganidek, o'qituvchilarning aksariyati SCL yondashuviga ijobiy munosabat bildirgan bo'lsa-da, uning amaliyotda samarali tatbiq etilishiga metodik, texnologik va tashkiliy to'siqlar mavjud. Shu boisdan SCL metodlarini tarix ta'limiga samarali integratsiya qilish uchun birinchi navbatda o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini kuchaytirish, ushbu yondashuvga ixtisoslashgan malaka oshirish kurslarini tizimli yo'lga qo'yish zarur. Bundan tashqari, ta'lim muassasalarini interaktiv xaritalar, tarixiy hujjatlar, kengaytirilgan haqiqat (AR) texnologiyalari bilan jihozlash, darslarda loyiha asosida o'qitish, keys-stadilar, hujjatlar asosidagi tahlil va bahs-munozaralarni keng joriy etish SCL samaradorligini yanada oshiradi. Xulosa qilib aytganda, SCL yondashuvi tarix fanida didaktik samaradorlikni oshirish bilan birga, o'quvchilarning shaxsiy, ijtimoiy va axloqiy kamolotini ta'minlaydigan kuchli pedagogik tamoyil sifatida e'tirof etiladi. Ammo ushbu natijalarga erishish uchun o'qituvchidan yangicha didaktik tafakkur, uzluksiz kasbiy o'sish va pedagogik jasorat talab qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aslan, S., et al. (2013). Student-centered learning and teaching. // *Procedia - Social and Behavioral Sciences*. – Vol. 93. – P. 1352–1356.

2. Barraket, J. (2005). Teaching research method using a student-centered approach. // *Journal of University Teaching & Learning Practice*. – Vol. 2(2). – P. 64–74.
3. Sugralina, L., et al. (2017). The impact of active learning methods in higher education. // *Bulletin of Science and Practice*. – Vol. 3(7). – P. 234–239.
4. Lea, S. J., Stephenson, D., Troy, J. (2003). Higher education students' attitudes to student-centred learning. // *Studies in Higher Education*. – Vol. 28(3). – P. 321–334.
5. Borhan, M. T., et al. (2020). Readiness in implementing student-centered learning in Malaysian schools. // *International Journal of Learning and Teaching*. – Vol. 12(1). – P. 48–56.
6. Marinko, I., et al. (2021). Empowering teachers for student-centered approach. Erasmus+ Project Report.
7. Noroozi, O., et al. (2016–2022). Research on SCL: peer assessment, gamification, and digital learning. // Multiple publications in *Computers & Education*, *Educational Technology Research and Development*.